

YOSHLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Sultonmaxmudov Abdulmajid Abdurashid o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Tel: +998913545775

E-mail: Majidabdurashidof@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21055753>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tutgan o‘rni, ularning yosh avlod tarbiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri hamda ta’lim tizimining bu jarayondagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, globallashuv sharoitida yoshlarni milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, bag‘rikenglik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan. Maqolada ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish, yoshlarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari yosh avlodni barkamol inson sifatida voyaga yetkazishda qadriyatlarga asoslangan ta’limning muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ta’lim tizimi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, barkamol avlod, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, axloqiy tarbiya, milliy o‘zlik, madaniy meros, insonparvarlik, bag‘rikenglik, ijtimoiy faollik, ma’naviy kamolot.*

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

***Аннотация.** В данной статье анализируется роль национальных и общечеловеческих ценностей в формировании духовности молодежи, их влияние на воспитание подрастающего поколения, а также значение системы образования в данном процессе. Особое внимание уделяется вопросам воспитания молодежи в духе патриотизма, гражданской ответственности, гуманизма, толерантности и национального самосознания в условиях глобализации. В статье раскрываются педагогические возможности эффективной организации духовно-просветительской деятельности в образовательных учреждениях, развития нравственных качеств молодежи и обеспечения гармонии национальных и общечеловеческих ценностей. Результаты исследования свидетельствуют о важности ценностно-ориентированного образования в воспитании всесторонне развитой личности.*

***Ключевые слова:** духовность, воспитание молодежи, национальные ценности, общечеловеческие ценности, система образования, духовно-просветительская работа, гармонично развитое поколение, патриотизм, гражданская ответственность, нравственное воспитание, национальное самосознание, культурное наследие, гуманизм, толерантность, социальная активность, духовное развитие.*

THE ROLE OF NATIONAL AND UNIVERSAL HUMAN VALUES IN THE SPIRITUAL AND MORAL DEVELOPMENT OF YOUTH

***Abstract.** This article examines the role of national and universal values in shaping the spirituality of young people, their influence on the upbringing of the younger generation, and the importance of the education system in this process. Particular attention is paid to fostering patriotism, civic responsibility, humanism, tolerance, and national identity among youth in the context of globalization. The paper highlights the pedagogical opportunities for effectively organizing spiritual and educational activities in educational institutions, developing moral qualities*

among young people, and ensuring harmony between national and universal values. The findings indicate that value-based education plays a significant role in raising a well-rounded and morally mature generation.

Keywords: *spirituality, youth education, national values, universal values, education system, spiritual and educational activities, well-rounded generation, patriotism, civic responsibility, moral education, national identity, cultural heritage, humanism, tolerance, social activity, spiritual development.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yosh avlodni har tomonlama barkamol, yuksak ma’naviyatli va mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega shaxs sifatida tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har qanday jamiyatning kelajagi uning yoshlariga bog‘liq bo‘lib, ularning bilimli, vatanparvar, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetishi davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sanaladi. Shu bois ta’lim-tarbiya tizimida yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularda milliy o‘zlikni anglash hissini shakllantirish hamda umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Milliy qadriyatlar xalqning ko‘p asrlik tarixi, urf-odatlar, an’analari, tili, madaniyati va ma’naviy merosini o‘zida mujassamlashtiradi. Ular yosh avlodning milliy o‘zligini anglashida, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar esa inson huquqlari, tinchlik, bag‘rikenglik, adolat, mehr-oqibat va hamjihatlik kabi butun insoniyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qadriyatlarning uyg‘unligi shaxsning ma’naviy barkamolligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim tizimi yoshlarni nafaqat bilim va kasb-hunarga o‘rgatadi, balki ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz ta’lim jarayonida milliy va umuminsoniy

qadriyatlarni singdirish orqali yoshlarning dunyoqarashi shakllanadi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyati ortadi. Ayniqsa, dars jarayonlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, tarixiy merosni o‘rganish, buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyati bilan tanishtirish orqali yoshlarning ma’naviy kamolotiga samarali ta’sir ko‘rsatish mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ham yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham yoshlar masalasi alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, ta’lim sifati va ma’naviy tarbiya masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa yosh avlodning ma’naviy barkamolligini ta’minlashda ta’limning o‘rni va ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Milliy qadriyatlarning tiklanishi va yoshlar ma’naviy tarbiyasi. Bugungi kunda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar yosh avlodning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishi, o‘z milliy o‘zligini anglagan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar yoshlarning ma’naviy kamolotida muhim omil bo‘lib, ularda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘ularini rivojlantiradi.

Mustaqillik yillarida xalqimizning boy ma’naviy merosi, tarixiy qadriyatlari va buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’rifiy faoliyati keng targ‘ib qilinib, yoshlar ongiga singdirib kelinmoqda. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Imom Buxoriy, Ahmad Farg‘oniy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalar va davlat arboblarning boy merosi yoshlar uchun ma’naviy tarbiya maktabi vazifasini o‘tamoqda. Bu esa yoshlarning milliy o‘zligini anglashiga, tarixiy xotirasini mustahkamlashga va ma’naviy yetuk inson bo‘lib shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ta’lim tizimida umuminsoniy qadriyatlarga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolat, tinchliksevarlik va hamkorlik kabi qadriyatlar yoshlarni zamonaviy dunyoqarashga ega, ijtimoiy faol va mas’uliyatli fuqarolar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, tarbiyaviy mashg‘ulotlar va innovatsion ta’lim texnologiyalari yoshlarning bilim va ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

“Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma’naviy qadriyatlarini o‘rganib qolayotgani yo‘q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo‘lmoqda. Xorijiy davlatlarda o‘qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg‘or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar”⁵⁰.

Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining salmoqli qismini yoshlar tashkil etadi. Ma’lumki, 2020 yilda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 18 million 720 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 14 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni tashkil etgan edi.⁵¹ O‘z-o‘zidan ayonki, aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarning ma’naviy kamoloti, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati hamda ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, “Oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma’naviyatni shakllantirishda, boshqacha aytganda, ozod, o‘z haq-huquqini yaxshi taniydigan, boqimandalikning o‘zi uchun or deb biladigan, o‘z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o‘z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlar bilan uyg‘un holda ko‘radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iborat”⁵².

⁵⁰ Madaliyeva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. - T.: “Akademiya”, 2020. 5-bet

⁵¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1999. 304-bet.

⁵² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7- jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1999. 306-bet

Ma'lumki, tarbiya inson shaxsi ma'naviyatini, e'tiqodini, o'zini anglashini va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Shunday ekan, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda ta'lim va tarbiya jarayonlarini uyg'un holda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim orqali yoshlar nafaqat muayyan kasb-hunarni egallaydi, balki ma'naviy jihatdan yetuk, ijtimoiy faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanib boradi. Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Birinchi Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, “Huquqiy demokratik adolatli davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, xalqimizning madaniy va eng nozik tuyg'ularini, chuqur falsafiy, siyosiy, huquqiy tushunchalarini o'zida mujassam etadigan ma'naviyatni yuksaltirish asosiy va ustivor vazifalardan biriga aylandi”⁵³.

Jamiyat yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o'z istiqboliga erisha olmaydi. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash bundan buyon ham faoliyatimizning eng muhim yo'nalishi bo'lib qoladi”⁵⁴ deb ta'kidlaydi Birinchi Prezident I.A. Karimov. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda ma'naviy immunitetni shakllantirish hamda zamonaviy bilimlarni egallashga bo'lgan intilishni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar dunyoqarashida milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish, ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglash va jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda faol ishtirok etishi bugungi kunning muhim masalalaridan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Millat uchun erkinlik

⁵³ Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish-oliy saodatdir. – T.: “O'zbekiston”, 2007. 38-bet

⁵⁴ Milliy istiqlol g'oyasi. Bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2020

adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o‘ziga qaram qilishga, birovning mol-mulkini talon-taroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o‘ldirishga yoki zarar yetkazishga yo‘l qo‘ymaydi” [6] deb ta’kidlaydilar. Ushbu fikrlar yoshlarni erkin fikrlash, qonunlarga hurmat ruhida yashash, insonparvarlik va adolat tamoyillariga sodiq bo‘lishga undaydi.

Yoshlar o‘z dunyoqarashida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda yashasa, ularda Vatanga sadoqat, milliy g‘urur, bag‘rikenglik, fuqarolik mas’uliyati va insonparvarlik kabi fazilatlar shakllanadi. Aks holda, ularning ongida milliy manfaatlarga yot bo‘lgan qarashlar paydo bo‘lishi mumkin. Shu bois yoshlarning milliy-ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini o‘rganish, ularda ushbu qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini rivojlantirish va ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirish bugungi kun pedagogikasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘zaro uyg‘un holda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, tarixiy xotira va ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘ularini shakllantirsa, umuminsoniy qadriyatlar ularni insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolat, tinchliksevarlik va hamkorlik ruhida tarbiyalaydi. Ushbu qadriyatlarning uyg‘unligi barkamol, mustaqil fikrlaydigan va yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimi yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ta’lim muassasalarida olib boriladigan o‘quv va tarbiyaviy ishlar orqali o‘quvchilarning milliy o‘zligini anglash, tarixiy merosga hurmat bilan qarash, umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash kabi fazilatlari rivojlanadi. Ayniqsa, dars jarayonlariga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish

hamda buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosidan keng foydalanish yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida turli g‘oyaviy tahdidlar, ommaviy madaniyatning salbiy ta’siri va axborot oqimlarining keskin ortib borishi yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga yanada mas’uliyat bilan yondashishni talab etmoqda. Shu sababli oila, ta’lim muassasalari va mahalla hamkorligini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu jarayonda pedagoglarning kasbiy mahorati, ota-onalarning mas’uliyati va jamiyatning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli ruhda tarbiyalash mamlakatning barqaror taraqqiyoti, ma’naviy yuksalishi va kelajak avlodlarning barkamol bo‘lib voyaga yetishida muhim omil hisoblanadi. Ta’lim tizimida ushbu qadriyatlarni keng targ‘ib qilish, ularni yoshlar ongiga chuqur singdirish hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni izchil takomillashtirish orqali jamiyatning intellektual va ma’naviy salohiyatini yanada yuksaltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Madaliyeva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. - T.: “Akademiya”, 2020. 5-bet.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.7-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1999. 304-bet.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.7- jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1999. 306-bet.
4. Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish-oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2007. 38-bet.
5. Milliy istiqlol g‘oyasi. Bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2020

6. Milliy istiqlol g‘oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘zbekiston, 2019.

7. Алимухамедова Н.Я. Глобал интеграция жараёнларида маданиятлар хилмахиллигини сақлагаш масаласи.«Фалсафа ва ҳуқуқ».№3. – Тошкент, 2023. – Б. 193-194.

8. Эргашев И. Ёшларнинг ижтимоий фаоллиги. –Т.: “Академия”, 2020. 16- 17 бетлар